

“Mikrokreditbank” ATB

Boshqaruvining

2026-yil “30” “yanvar” dagi
17-3 - sonli qaroriga

ilova

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida kreditlash xizmatlari
bo‘yicha shartnoma shartlarini qayta ko‘rib chiqish va kreditning bir qismi
qaytarilganligi munosabati bilan ta‘minotdan chiqarish
yoki almashtirish to‘g‘risidagi
Tartib**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida kreditlash xizmatlari bo‘yicha shartnoma shartlarini qayta ko‘rib chiqish va kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta‘minotdan chiqarish yoki almashtirish to‘g‘risida”gi Tartib (keyingi o‘rinlarda – Tartib) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Garov to‘g‘risida”gi, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunlari va “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 3030, 2018-yil 2-iyul), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o‘rinlarda – Markaziy bank) me‘yoriy hujjatlari, “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami: 2696, 2015-yil 14-iyul) hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Kredit siyosati va “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – bank) ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Tartib bank tizimida kredit va unga tenglashtirilgan boshqa moliyaviy xizmatlar (kafolat, lizing, bo‘lib to‘lash sharti bilan berilgan mol-mulklar) bo‘yicha shartnoma shartlarini qayta ko‘rib chiqish, qaytarish jadvalini o‘zgartirish, ta‘minot sifatida taqdim etilgan garov mulklarini qisman taqiqdan chiqarish yoki almashtirish jarayonini qanday amalga oshirilishini belgilaydi.

3. Ushbu Tartib bankning ichki qoidasi hisoblanadi va bankning barcha tarkibiy va hududiy bo‘linmalari tomonidan majburiy ijro etilishi shart.

4. Ushbu Tartibda quyidagi atama va tushunchalardan foydalaniladi:

hududiy boshqarma – Toshkent shahar boshqarmasi, Amaliyot boshqarmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlar hududiy boshqarmalari;

BXO - Bank xizmatlar ofisi



BXM - Bank xizmatlar markazi

kredit – bank tomonidan qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdor va shartlar asosida taqdim etiladigan pul mablag‘ bo‘lib, unga muvofiq qarz oluvchi olingan summani belgilangan muddatda qaytarish hamda foizlarni to‘lash majburiyatini oladi;

kredit shartnomasi – bank va qarz oluvchi o‘rtasida tuziladigan, kredit berish tartibi, undan foydalanish shartlari, foizlarni hisoblash hamda kredit va unga doir majburiyatlarni qaytarish shartlarini belgilovchi shartnoma;

garov ta‘minoti – bir shaxsning boshqa shaxsga majburiyatlarni ta‘minlash maqsadida mol-mulkni yoki unga bo‘lgan mulkiy huquqni berishi.

“Smart office” dasturi - Elektron hujjat aylanish dasturi

II-bob. Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko‘rib chiqish qoidalar

5. Shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar (kredit, kafolat, lizing, bo‘lib to‘lash sharti bilan berilgan mol-mulk) – kredit shartnomasi va (yoki) unga tuzilgan qo‘shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari (kredit summasi, muddati, foiz stavkasi, to‘lov jadvali va boshqa muhim shartlari) o‘zgartirilgan kreditlar hisoblanadi.

6. Kreditning quyida keltirilgan asosiy shartlaridan kamida bittasi o‘zgartirilgan taqdirda, bunday kreditlar shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar deb hisoblanadi:

foiz stavkasining pasaytirilishi (kredit shartnomasida belgilangan o‘zgaruvchan foiz stavkasining pasayishi munosabati bilan bog‘liq holatlari bundan mustasno);

asosiy qarz summasining kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi (kreditning foydalanilmagan qismi kamaytirilgan holatlar bundan mustasno);

foizlar va (yoki) asosiy qarzga bo‘yicha to‘lovlarning bir qismi yoki to‘liq miqdoridan voz kechilishi;

kreditning asosiy qarzi va (yoki) foizlarini to‘lash muddati kechiktirilishi yoki uzaytirilishi (mijozni moliyalashtirishni boshlash muddati o‘zgarganligi natijasida to‘lov jadvalining yoki to‘lovlar amalga oshiriladigan oy doirasida to‘lov sanasining o‘zgartirilishi holatlari bundan mustasno);

ta‘minotlarning o‘zgartirilishi (kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan garovdan chiqarilgan hamda kredit summasining garov qiymatiga nisbati bankning ichki qoida/hujjatlarida ko‘rsatilgan chegaradan oshmagan holatlar bundan mustasno);

foizlarning kapitalizatsiya qilinishi.

7. Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko‘rib chiqish va kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta‘minotdan chiqarish hamda garov mulkini almashtirish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

- kredit mablag'laridan kredit oluvchi tomonidan maqsadsiz foydalanilganligi aniqlangan bo'lsa;

- kredit oluvchi tomonidan ajratilgan kredit bo'yicha oxirgi 12 oyda davomida pul aylanmalarini amalga oshirmagan bo'lsa (ishga tushmagan loyihalar bundan mustasno);

- kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish (kredit muddatini uzaytirish) bo'yicha kredit oluvchi bankka ariza taqdim etgan sanada asosiy qarz va foizlar bo'yicha 120 kundan ortiq muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Hukumat komissiyasi ishchi guruhining topshiriqlari, shuningdek tashrifga tushgan loyihalar bo'yicha kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish holatlari bundan mustasno);

- kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki garov mulkini almashtirish bo'yicha kredit oluvchi bankka ariza taqdim etgan sanada asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa yoki aloqador korxonalari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik aniqlangan bo'lsa (Ichki nazorat departamenti xulosasiga asosan), shuningdek "Kartoteka-2" hisobvaraqlarida qarzdorliklar mavjud bo'lsa;

- kredit muddati avval ikki marta uzaytirilgan bo'lsa (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Hukumat komissiyasi ishchi guruhining topshiriqlari hamda tashrifga tushgan loyihalar bo'yicha kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish holatlari bundan mustasno);

- qarzdorlik qaytarish muddati umumiy 24 oy va undan ortiq muddatga uzaytirilgan kreditlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Hukumat komissiyasi ishchi guruhining topshiriqlari hamda tashrifga tushgan loyihalar bo'yicha kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish holatlari bundan mustasno).

- monitoring natijasiga ko'ra, garov mulklariga zarar yetkazilgan, ular begonalashtirilgan (yo'qotilgan), kafillik yoki kafolat bergan taraf to'lovga qobiliyatsiz deb topilgan bo'lsa;

- mijozga nisbatan bankdan olingan kredit qarzdorligi yuzasidan huquqiy choralar ko'rilgan bo'lib, majburiy undiruv, tergov yoki surishtiruv ishlari mavjud bo'lsa (Yuridik departamenti xulosasiga asosan);

- jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan onlayn hamda maqsadli ishlatilganligini o'rganish talab etilmaydigan kreditlar bo'yicha;

- garovni qisman taqiqdan chiqarishda, kredit ta'minotiga qabul qilingan kredit qaytmaslik xatari bo'yicha sug'urta polisi yoki kafillik summasi to'liq chegirilgandan so'ng, mol-mulk ta'minoti qiymati kredit asosiy qarzdorligi qoldig'ining 125 foizidan kam bo'lib qolsa;

- taqiqdan chiqarilayotgan garov mulki o'rniga noliqvid ta'minot taqdim etilsa (ya'ni taqdim etilayotgan ta'minot turini qisqa muddatlarda oson (yengil) realizatsiya qilish (undirib olish) imkoniyati mavjud bo'lmasa);

- kredit muddati uzaytirilgan taqdirda, ushbu muddatga mos ravishda ta'minot qiymati kredit qoldig'ining hamda avval muddati uzaytirilgan foizning (agarda mavjud bo'lsa) 125 foizidan kam bo'lsa;

- kredit foizini to'lash muddati uzaytirilgan taqdirda, ushbu muddatga mos ravishda ta'minot qiymati kredit qoldig'i, avval muddati uzaytirilgan foiz (agarda mavjud bo'lsa) va muddati uzaytirilayotgan foizlar qoldig'ining 125 foizidan kam bo'lsa;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash uchun ajratilgan kreditlar;

- balansdan tashqari hisobvaraqa yuritilayotgan kreditlar (95413).

8. 7-bandda ko'rsatib o'tilgan shartlar bajarilishidan qat'iy nazar kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish quyidagi holatlarda amalga oshirilishi mumkin:

ajratilgan kreditlar bo'yicha fors-major holatlari ta'sirida mijozning moliyaviy holati yomonlashgan, shartnoma shartlari va qaytarish jadvaliga asosan kreditning asosiy qarz va foiz to'lovlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelgan hollarda (bunda fors-major holatlariga tabiiy ofat, ob-havo falokatlar, geosiyosiy vaziyatlar, epidemiya va hokazolar kiradi);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, hududlarga tashriflari, Hukumat komissiyasi ishchi guruhining bayonnomasi, tuman/shahar va/yoki viloyat hokimliklari/Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi bilan tasdiqlangan "yo'l xaritasi"ga tushgan mijozlarga hamda istiqbolli yirik investitsiya loyihalariga ajratilgan kreditlar muddatiga o'zgartirish kiritish (tegishli qaror, farmon yoki bayonga asosan shartnoma shartlariga bir marotaba o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq);

kreditning imtiyozli davri tugamagan va birinchi marta uzaytirilayotgan kreditlar (bunda shartnomaning yakuniy muddati uzaytirilayotgan imtiyozli davr muddatidan ortiq bo'lmasligi hamda ta'minot qiymati kredit qoldig'i va muddati uzaytirilgan foizlar qoldig'ining 125 foizidan kam bo'lmasligi shart);

kredit oluvchi haqiqatda tovar va xizmatlarini sota olmagan (omborida yig'ilib qolgan yoki servisga talab bo'lmagan) yoki xom-ashyo yetishmovchiligi bo'lgan yoki xom-ashyolar bahosi o'sib ketgan hollarda (faqat bir marotaba qayta ko'rib chiqiladi);

sudning garovni taqiqdan chiqarish to'g'risidagi hal qiluv qarori mavjud bo'lgan hollarda qisman taqiqdan chiqarishga ruxsat beriladi (Yuridik departament xulosasi asosida).

9. "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan

foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomiga (ro'yxat raqami: 2696, 2015-yil 14-iyul) asosan qarz oluvchining murojaatiga ko'ra bank tomonidan kredit shartnomasi muddati mobaynida to'lovlar muddati birinchi marotaba quyidagi holatlar natijasida kechiktirilganda yoki uzaytirilganda kredit tasnifi o'zgartirilmaydi va shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar deb tasniflanmaydi:

qarz oluvchining ikki oydan ortiq davr mobaynida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi;

qarz oluvchining mehnat shartnomasi bekor qilinishi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ro'yxatga olinishi;

qarz oluvchining birgalikda qarz oluvchisi va (yoki) kafili bo'lgan turmush o'rtog'i vafot etishi;

I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar qarz oluvchining qaramog'iga olinishi yoki uning qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishi;

qarz oluvchiga nisbatan nogironlikning I yoki II guruhi belgilanishi;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi; homiladorlik va tug'ish ta'tilini olgan ayollar uchun.

Bunda, mazkur bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan holatlar yuzasidan qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirish to'g'risida bankka murojaat qilinganda mazkur murojaat sanasidan oldingi ikki oy davomida qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari so'nggi 12 (o'n ikki) oy ichidagi o'rtacha oylik daromadlariga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo'lishi lozim.

Mazkur bandning ikkinchi-sakkizinchi xatboshilarida belgilangan holatlar qarz oluvchi kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirish yuzasidan bankka murojaat qilgan sanadan oldingi to'rt oy ichida ro'y bergan bo'lishi lozim.

Kredit tasnifi o'zgartirilmasligi va shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar deb tasniflanmasligi uchun kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar mazkur bandning:

ikkinchi–yettinchi xatboshilarida belgilangan holatlarda 6 oydan;

sakkizinchi xatboshisida belgilangan holatda 10 oydan ko'p bo'lmagan muddatga kechiktirilgan yoki uzaytirilgan bo'lishi lozim.

10. Kredit shartnomasi shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari va kredit muddatlarini belgilash (foiz stavkalarini oshirish) bankning tegishli kollegial organi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Bunda foiz stavkalari, valyuta turi, kredit muddati va hajmi, resurslar manbalari, xalqaro moliya institutlari hamda maqsadli jamg'armalar kredit liniyalari shartlari, jalb qilingan resurslar bo'yicha o'rtacha stavka darajasi, mijozlarning kreditga layoqatlilik darajasi, kredit tavakkalchiligi va boshqa ehtimoliy xatarlarga inobatga olinadi, kreditning yakuniy muddatini uzaytirishda,

loyihaning o'zini-o'zi qoplashidan kelib chiqqan holda individual yondashuv asosida amalga oshiriladi. Bunda kreditning yakuniy muddati 1 yil va undan ortiq muddatga uzaytirilganda kredit foiz stavksi kamida 1 foiz va undan yuqori stavkada oshirilishi mumkin. Shuningdek, loyiha ijtimoiy ahamiyatga egaligi inobatga olingan hollarda, kreditning foiz stavkasi o'zgarishsiz qoldirilishi mumkin. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Hukumat komissiyasi ishchi guruhining topshiriqlari, shuningdek tashrifga tushgan loyihalar bo'yicha kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish holatlarida alohida belgilangan shartlar bundan mustasno).

Kredit qo'mita vakolati doirasida ajratilgan kreditlar bo'yicha kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish, shu jumladan kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish hamda garov mulkini almashtirish masalalari ham Kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

III-bob. Kredit shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish va kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish tartibi

11. Mijoz kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish va kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotni chiqarish yoki almashtirish istagini bildirgan taqdirda, u xizmat ko'rsatuvchi BXO/BXM rahbariga belgilangan shakldagi ariza (1,1a,1b-ilovalar) bilan murojaat qiladi. (Arizalar bankka kelib tushgan kundan boshlab "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi" qonunga asosan o'n besh bank ish kun ichida, qo'shimcha o'rganish va tekshirish, hujjatlarni so'rab olish talab etilganda bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi).

12. BXO/BXM rahbari arizani ko'rib chiqib, uni o'rganish uchun mas'ul xodimga yo'naltiradi.

13. Mas'ul xodim arizani qabul qilib, 3 (uch) ish kuni ichida mazkur Tartibning 2 va 2a-ilovalarida ko'rsatilgan hujjatlarni mijoz tomonidan taqdim etish zarurligi haqida mijozni xabardor qiladi.

14. Mijoz tomonidan ilovalarda ko'rsatilgan hujjatlar to'plami to'liq taqdim etilgandan so'ng, mas'ul xodim arizada keltirilgan sabablar va taqdim etilgan hujjatlarni o'rganadi. Arizada keltirilgan holatlarning haqiqatda mavjudligini tasdiqlash maqsadida mijoz faoliyati va garov obyektlari joyiga chiqib o'rganadi, monitoring o'tkaziladi va tegishli dalolatnoma (3-ilovaga muvofiq) rasmiylashtiradi.

To'plangan hujjatlar asosida mas'ul xodim tomonidan xulosa tayyorlanadi va vakolat doirasida qaror qabul qilish uchun BXO/BXM Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritiladi.

15. BXO/BXM Kredit komissiyasi o'z vakolatlari doirasida kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish va (yoki) kreditning bir qismi

qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish bo'yicha mazkur tartibga mosligini tekshirgandan so'ng qaror qabul qiladi. BXO/BXM Kredit komissiyasi vakolat doirasida kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish/kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish bo'yicha ijobiy qaror qilgandan so'ng, mazkur masala hududiy boshqarma Kredit komissiyasi tomonidan ko'rib chiqishi lozim.

16. Kredit komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilinganda, hududiy boshqarma tomonidan Bosh ofisning tegishli tarkibiy bo'linmasiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

BXO/BXMning kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish, kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish bo'yicha murojaati;

vakolat doirasida BXO/BXM mas'ul xodimining mijoz kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish, kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi ijobiy xulosasi (ushbu xulosada shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqishga olib kelgan sabablar aniq aks ettirilishi zarur);

BXO/BXM Kredit komissiyasining mijoz kredit shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish, kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish maqsadga muvofiqligi va uning shartlari ko'rsatib o'tilgan ijobiy qarori;

kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish nazarda tutilgan loyiha bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslari (TIA) yoki biznes-rejasi, unda shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etish va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar aks ettirilishi lozim (ta'minot turining o'zgartirilishi, kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarilish holatlari bundan mustasno);

ta'minotning holati to'g'risidagi ma'lumot;

mijozning boshqa banklardagi majburiyatlari bo'yicha ma'lumotnoma;

mijoz ustavining nusxasi (kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish sanasiga unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birga va/yoki ustavning yangi taxriri);

mijozning tashkiliy tuzilishidan (MCHJ, OK, XK va boshqalar) kelib chiqib, ta'sischilarining mazkur masala bo'yicha bayonnomasi va ta'sischilar to'g'risida hujjatlarning nusxalari;

garov egalari roziligi (kreditning so'nggi muddatini o'zgartirish, garov mulkini almashtirish yoki kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish uchun);

ariza taqdim etilgan sanada joriy monitoring dalolatnomasi.

17. Bosh ofisning tegishli departamenti tomonidan mazkur Tartibning 15-bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar to'liqligi ko'rib chiqadi.

Yirik kreditlar bo'yicha qo'shimcha o'rganish talab etilgan hollarda, Bosh ofisning Kreditlarni boshqarish departamenti monitoring xodimi tomonidan tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritayotgan manzili bo'yicha joyiga chiqqan holda o'rganadi hamda murojaatda ko'rsatilgan masala yuzasidan xulosa taqdim etadi.

18. Kredit shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqishda ya'ni qaytarish jadvalini o'zgartirishda Risk menejment departamenti, Yuridik departamenti G'aznachilik departamenti, Korporativ biznes departamenti, Ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish departamenti, Mahallabay ishlash va hududiy loyihalarni boshqarish hamda boshqa tegishli departamentlar bilan kelishilgan holda xulosa tayyorlanadi hamda yakuniy qaror qabul qilish maqsadida bankning Muammoli aktivlar bilash ishlash qo'mitasi muhokamasiga kiritiladi.

19. Garov mulkini almashtirish yoki kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish masalalari yuzasidan Risk menejment departamenti va Yuridik departamentining yozma xulosalari olinadi. Mazkur xulosalar yakuniy qaror qabul qilish maqsadida bankning Muammoli aktivlar bilan ishlash qo'mitasi yoki boshqa tegishli qo'mita muhokamasiga kiritiladi.

20. Kredit qo'mitasi vakolati doirasida ajratilgan kreditlarning garov mulkini almashtirish, garovdan chiqarish va garovni qisman taqiqdand chiqarish masalalari belgilangan tartibda Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritiladi.

21. Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari va muddatlarini o'zgartirish nazarda tutilgan hollarda, Aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasi va Muammoli aktivlar bilan ishlash qo'mitasining qo'shma qarori rasmiylashtiriladi.

22. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzni to'lashning yakuniy muddatining uzaytirilishi nazarda tutilgan hollarda (mijozni moliyalashtirishni boshlash muddati o'zgarishi hisobiga oraliq to'lov jadvalining yoki to'lovlar amalga oshiriladigan oy doirasida to'lov sanasining o'zgartirilishi bundan mustasno), masala Muammoli aktivlar bilan ishlash qo'mitasi qarori asosida bank Boshqaruvi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Agar mazkur masala bank Boshqaruvi vakolatidan yuqori bo'lsa, u holda qaror bankning yuqori kollegial organi qarori asosida qabul qilinadi.

23. Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha Bosh ofisning tegishli kollegial organlari tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida hududiy boshqarmaga qarordan ko'chirma nusxasi ilova qilingan holda javob xati yuboriladi.

24. Hududiy boshqarma mas'ul xodimi tomonidan BXO/BXMga, BXO/BXM mas'ul xodimi tomonidan esa mijozga ijobiy qaror qabul qilinganligi to'g'risida 3 (uch) bank ish kuni ichida javob xati yuboriladi hamda mijoz bilan kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish bo'yicha qo'shimcha kelishuv belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish bo'yicha qo'shimcha kelishuv belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

25. Murojaat rad etilgan taqdirda, hududiy boshqarma mas'ul xodimi tomonidan BXO/BXMga, BXO/BXM mas'ul xodimi tomonidan esa mijozga 3 (uch) bank ish kuni ichida rad etish sabablari ko'rsatilgan holda tegishli javob xatlari beriladi.

26. Kreditlar bo'yicha shartlar qayta ko'rib chiqilib, Bosh ofisning vakolatli organi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan hamda qarordan ko'chirma nusxasi taqdim etilgandan so'ng shartnomaga qo'shimcha kelishuv belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Shuningdek, quyidagilar amalga oshiriladi:

kreditning asosiy qarzi va (yoki) foizlarining to'lash muddatlariga kredit shartnomasining amal qilish muddati doirasida o'zgartirish kiritilgan hollarda, iABS dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi;

almashtirilayotgan yangi garov obyekti qarz oluvchi tomonidan ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi kredit muddati davomida sug'urta qilingan holda, garov (ipoteka) shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi va shundan so'ng garovdan chiqarishga ruxsat beriladi;

garov ta'minotlari o'zgargan taqdirda Garov reestriga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi shart;

ko'rsatilgan barcha xizmatlar uchun komission to'lovlar amaldagi bank tariflariga asosan belgilanadi va undiriladi.

27. Bank mijozlari uchun qulayliklar yaratish hamda bankning doimiy va intizomli mijozlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, mazkur Tartibning 7-bandida belgilangan mezon talablariga zid bo'lmagan va kredit qoldig'i amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 500 (besh yuz) baravaridan oshmagan holatlarda, kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan qisman ta'minotdan chiqarish bo'yicha kelib tushgan murojaatlar quyidagi shartlarga javob bergan taqdirda, Kredit qo'mitasi va Muammoli aktivlar bilash ishlash qo'mitasi muhokamasiga kiritilmasdan, Kreditlarni boshqarish hamda Risk menejment departamentlari xulosalari asosida garovdan chiqarishga ruxsat berilishi mumkin. Bunda quyidagi talablar bajarilganda:

mijoz tomonidan ariza taqdim etilgan sanada garovda qolayotgan likvidli ta'minot qiymati kredit qoldig'ining kamida 130 foizini tashkil etsa;

ajratilgan kreditning summasining kamida 30 (o'ttiz) foizi so'ndirilgan bo'lsa (kreditning foydalanilmagan qismi mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno).

28. Garov to'g'risidagi qonunning 25-moddasiga asosan qarzdor tomonidan kreditor oldidagi majburiyat bajarilmagan taqdirda, qarzdorning majburiyatini ta'minlash uchun garovni taqdim etgan uchinchi shaxs (mulkiy kafil) undiruvni garov narsasiga qaratishdan saqlanish maqsadida bu majburiyatni garov narsasining qiymati doirasida to'lovlarni amalga oshirgan holatlarda Kreditlarni

taqiqdan chiqarishga ruxsat berilishi mumkin (Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi AJning kafilligi taqdim etilgan mijozlar bundan mustasno).

IV-bob. Mas'uliyat va javobgarlik

29. BXO/BXMLarning kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish amaliyotlariga mas'ul bo'linma rahbari va mas'ul xodimlari kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish jarayoni bo'yicha quyidagilarga mas'ul va javobgar hisoblanadi:

mijozning kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish arizasini qabul qilish;

mijoz tomonidan taqdim etilgan kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish haqidagi arizani belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish;

mijoz tomonidan dastlab taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liqligi va haqqoniyligini, huningdek, tegishli huquqiy asoslarning mavjudligini o'rganish;

elektron hujjatlar arxivini shakllantirish maqsadida, qo'shimcha kelishuv asosida qayta rasmiylashtirilgan barcha kredit hujjatlarini belgilangan talablar asosida sifatli skanerlab, IABS hamda "Smart-office" dasturlariga biriktirish;

garov ta'minotlari o'zgartirilgan hollarda Garov reestriga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

30. Mijozning kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish arizasidan so'ng o'tkazilgan monitoring natijalari asosida tuzilgan dalolatnomadagi ma'lumotlarning to'g'riligi va haqqoniyligi, shuningdek rasmlarning aynan monitoring jarayonida olinganligi dalolatnomani imzolovchi xodimlar tomonidan mas'ul va javobgar hisoblanadi.

31. Kredit ta'minotlarining holati bo'yicha ma'lumotlarning to'g'riligi va haqqoniyligi garov mulkini qiymatini kelishish komissiyasi a'zolari zimmasida javobgar hisoblanadi.

32. Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish amaliyotlari bo'yicha hujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan taqdirda, kreditning o'z vaqtida to'lanmasligi yoki boshqa sabablar bilan yuzaga keladigan muammolar yuzasidan Bosh ofis tarkibiy bo'linmalari mas'ul xodimlari javobgar hisoblanadi.

33. Kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan mulklar bahosi, kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish va kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish maqsadida qayta baholanishi maqsadga muvofiq emas (kredit ta'minotiga taqdim etilgan asbob uskunalar hamda va avtotransport vositalari bundan mustasno).

34. Mazkur Tartib talablarini buzgan shaxslar qonun hujjatlari va bankning ichki qoida/hujjatlariga muvofiq javobgar hisoblanadi.



V-bob. Yakuniy qoidalar

35. Manfaatlarni to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

36. Mazkur Tartib bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanib va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

37. Mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bank Boshqaruvi qaroriga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

38. Mazkur Tartibda ko'rsatib o'tilmagan holatlar amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

39. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Tartibda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, vazifalari va majburiyatlari boshqa tarkibiy bo'linmalarga o'tkazilgan yoki nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli Tartib qoidalari (talablari) ularning vazifalari va majburiyatlarini qabul qilingan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

40. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Tartibga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilinadi.



“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida Kreditlash xizmatlari bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish va kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish to'g'risida”gi Tartibiga

1-ilova

NAMUNA (garovni qisman taqiqdan chiqarish)

“Mikrokreditbank” ATB _____ BXM/BXO boshlig'iga
_____ **dan**

(F.I.Sh./Tashkilot nomi)

ARIZA

Men/ _____ ga 20__ -yil ____dagi ***-sonli kredit
(tashkilot nomi)

shartnomasiga ko'ra _____ maqsadida yillik
**foiz ustama to'lash sharti bilan ** oy muddatga _____ so'm/AQSh dollari/Yevro
miqdorida kredit mablag'i ajratilgan.

Ushbu kredit ta'minoti sifatida _____

garovga qo'yilgan.

Bugungi kunda kredit qarzdorligi _____ so'mni, shundan muddati o'tgan
qarzdorligi _____ so'mni tashkil etadi.

Shu sababli garovga qo'yilgan _____

garovdan chiqarib, ushbu mulkka nisbatan qo'yilgan taqiqni bekor qilishingizni so'rayman.

Kredit qarzdorligini grafik asosida o'z vaqtida so'dirishga kafolat beraman.

(F.I.Sh./Tashkilot nomi)

(F.I.Sh.)

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat
bankida Kreditlash xizmatlari bo'yicha
shartnoma shartlarini qayta ko'rib
chiqish va kreditning bir qismi
qaytarilganligi munosabati bilan
ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish
to'g'risida”gi Tartibiga
1a-ilova**

NAMUNA (garovni almashtirish)

“Mikrokreditbank” ATB _____ BXM/BXO boshlig'iga

dan

(F.I.Sh./ Tashkilot nomi)

ARIZA

Men/ _____ ga 20__ -yil ____dagi ***-sonli kredit
(tashkilot nomi)

shartnomasiga ko'ra _____ maqsadida yillik
**foiz ustama to'lash sharti bilan ** oy muddatga _____ so'm/AQSh dollari/Yevro
miqdorida kredit mablag'i ajratilgan.

Ushbu kredit ta'minoti sifatida _____

garovga qo'yilgan.

Bugungi kunda kredit qarzdorligi _____ so'mni, shundan muddati o'tgan
qarzdorligi _____ so'mni tashkil etadi.

Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan _____

mulkni bugungi kunda vujudga kelgan zarurat sababli _____ tegishli _____

mulkka almashtirishda amaliy yordam berishingizni so'rayman.

Kredit qarzdorligini grafik asosida o'z vaqtida so'dirishga kafolat beraman.

(F.I.Sh./ Tashkilot nomi)

(F.I.Sh.)



“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida Kreditlash xizmatlari bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish va kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarish yoki almashtirish to'g'risida”gi Tartibiga

1b-ilova

NAMUNA (kredit muddatini uzaytirish)

“Mikrokreditbank” ATB _____ BXM/BXO boshlig'iga
_____ **dan**

(F.I.Sh./ Tashkilot nomi)

ARIZA

Men/ _____ ga 20 ____ -yil ____ dagi ***-sonli kredit
(tashkilot nomi)

shartnomasiga ko'ra _____ maqsadida yillik
**foiz ustama to'lash sharti bilan ** oy muddatga _____ so'm/AQSh dollari/Yevro
miqdorida kredit mablag'i ajratilgan.

Bugungi kunda kredit qarzdorligi _____ so'mni, shundan muddati o'tgan
qarzdorligi _____ so'mni tashkil etadi.

Hozirda tashkilot tomonidan _____

_____ muammoga duch kelganligi sababli shartnoma shartlariga _____

_____ o'zgartirish kiritishda amaliy yordam berishingizni so'rayman.

Kredit qarzdorligini grafik asosida o'z vaqtida so'dirishga kafolat beraman.

Tegishli hujjatlar ilovaga asosan taqdim etiladi.

(tashkilot nomi)

(F.I.Sh.)

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat
bankida Kreditlash xizmatlari bo'yicha
shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish
va kreditning bir qismi qaytarilganligi
munosabati bilan ta'minotdan chiqarish
yoki almashtirish to'g'risida”gi Tartibiga
2-ilova**

**Kredit shartnoma shartlariga o'zgartirish (garov mulklarini almashtirish)da qarz oluvchilar
tomonidan bankka taqdim etadigan hujjatlar ro'yhati**

1. Ariza.
2. Mijozning ustav nusxasi (shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish sanasiga unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birga va/yoki ustavning yangi tahriri).
3. Mijozning tashkiliy tuzilishi (MChJ, OK, XK va boshqalar)dan kelib chiqib, ta'sischilarining masala bo'yicha bayonnomasi va ta'sischilarning shaxsni tasdiqlovchi hujjat.
4. Boshqa kredit tashkilotlaridan olingan qarz mablag'lari va boshqa banklarda saqlanayotgan bo'sh mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnomalar (garovni almashtirish holatida (agar mavjud bo'lsa)).
5. Garovga taqdim etilayotgan mulklar holatini joyiga chiqib o'rganish dalolatnomasi.
6. Mulklarning bozor qiymati bo'yicha berilgan mustaqil baholash tashkilotining baholash hisoboti.
7. Garovga yangi taqdim etilayotgan mol-mulklarga nisbatan taqiqning mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Garov ta'minoti sifatida qabul qilingan mulkni to'liq, qisman taqiqdan chiqarish yoki almashtirish maqsadida 2-4 bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etilmaydi.

Hududiy bo'linma (Amaliyot boshqarmasi, hududiy viloyat boshqarmalari, Bank xizmatlari ofisi, Bank xizmatlari markazi) ma'sul xodimi arizani o'rganish jarayonida qo'shimcha hujjatlarni talab qilishi mumkin.

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat
bankida Kreditlash xizmatlari bo'yicha
shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish
va kreditning bir qismi qaytarilganligi
munosabati bilan ta'minotdan chiqarish
yoki almashtirish to'g'risida”gi Tartibiga
2a-ilova**

**Kredit shartnoma shartlariga o'zgartirish (kredit muddatiga o'zgartirish kiritish)da qarz
oluvchilar tomonidan bankka taqdim etadigan hujjatlar ro'yhati**

1. Ariza (asoslantirilgan).
2. Kafolat xati (qarzdorlikni o'z vaqtida so'ndirish bo'yicha).
3. Biznes reja/TIAGA kiritilgan asoslantirilgan qo'shimcha (kredit so'ngi muddati o'zgartirilganda).
4. Mijozning moliyaviy hisobotlari (1-sonli Buxgalteriya balansi, 2-sonli Moliyaviy natijalar, Jismoniy shaxslar, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno).
5. Mijozning ustav nusxasi (shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish sanasiga unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birga va/yoki ustavning yangi taxriri).
6. Mijozning tashkiliy tuzilishi (MChJ, OK, XK va boshqalar)dan kelib chiqib, ta'sischilarining masala bo'yicha bayonnomasi va ta'sischilarning shaxsni tasdiqlovchi hujjat).
7. Boshqa kredit tashkilotlaridan olingan qarz mablag'lari va boshqa banklarda saqlanayotgan bo'sh mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnomalar (agar mavjud bo'lsa).
8. Garov egalari roziligi (kredit so'ngi muddati o'zgartirish uchun).
9. Tashkilot faoliyati va garov ta'minot holati bo'yicha o'rganilgan monitoring dalolatnomasi.
10. Mulklarning bozor qiymati bo'yicha berilgan mustaqil baholash tashkilotining baholash hisoboti.
11. Kredit faoliyati va garov ta'minotining holati to'g'risida monitoring dalolatnomasi (15-ilova).
12. Hududiy bo'linma (Amaliyot boshqarmasi, hududiy viloyat boshqarmalari, Bank xizmatlari ofisi, Bank xizmatlari markazi) mas'ul xodimining xulosasi.
13. Kredit qaytarish grafigiga o'zgartirish kiritilish bo'yicha grafik namunasi.

Garov ta'minoti sifatida qabul qilingan mulkni to'liq, qisman taqiqdand chiqarish yoki almashtirish maqsadida 2-4 bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etilmaydi.

Hududiy bo'linma (Amaliyot boshqarmasi, hududiy viloyat boshqarmalari, Bank xizmatlari ofisi, Bank xizmatlari markazi) ma'sul xodimi arizani o'rganish jarayonida qo'shimcha hujjatlarni talab qilishi mumkin.

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-
tijorat bankida Kreditlash xizmatlari
bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib
chiqish va kreditning bir qismi
qaytarilganligi munosabati bilan
ta'minotdan chiqarish
yoki almashtirish to'g'risida”gi
Tartibiga
3-ilova**

NAMUNA

_____ ga 20__ -yil _____ dagi ***-sonli kredit
(F.I.Sh./tashkilot nomi)
shartnomasiga ko'ra 20__ yil _____ sanasiga kredit faoliyati va garov
ta'minotining holati to'g'risida monitoring
dalolatnomasi

“Mikrokreditbank” ATB _____ BXM/BXO Kredit monitoringi va muammoli aktivlar
bilan ishlash bo'limi xodimi _____ tomonidan qarzdor _____
(lavozi, _____ F.I.Sh.)

(F.I.Sh., tashkilot nomi)

rahbari _____ va bosh buxgalteri _____ xabardorligida qazrdorga ajratilgan
(F.I.Sh.) _____ (F.I.Sh.)

kreditning faoliyati, kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarining bajarilishi hamda kredit
ta'minotining holati bo'yicha monitoring amalga oshirildi.

MIJOZ TO'G'RISIDA MA'LUMOT

_____ Toshkent shahar _____ tuman hokimiyati qoshidagi tadbirkorlik
su'ektlarini ro'yxatga olish Inspektsiya tomonidan № _____ son bilan ro'yxatga olingan.

Tashkilot rahbari F.I.Sh., shaxsni tasdiqlovchi hujjatning ma'lumotlari, lavozimga
tayinlanganligi to'g'risida hujjat;

Tashkilot bosh buxgalteri F.I.Sh., pasport ma'lumotlari, lavozimga tayinlanganligi to'g'risida
hujjat

Jamiyatning 20__ yil _____ da tasdiqlangan yangi ustaviga asosan ustav fondi _____
so'mni tashkil etadi, o'rganish sanasiga ustav fonda _____ so'mga shakllantirilgan va quyidagi
ta'sislar hissasiga to'g'ri keladi:

- _____ so'm _____ %;
- _____ so'm _____ %;
- _____ so'm _____ %.

Asosiy faoliyat turi (OKONX): Umumqurilish faoliyati.

(agar tegishli ruxsat talab etadigan faoliyat amalga oshirilganda litsenziya sanasi va raqami)

Jamiyatning yuridik manzili: _____ viloyati, _____ tumani, _____ mahallasi, _____ ko'chasi ____-uy.

Jamiyatning faoliyatni amalga oshiradigan manzili: _____ viloyati, _____ tumani, _____ mahallasi, _____ ko'chasi ____-uy (ko'chmas mulkni 20__ yil ____ dagi ____-sonli ijara shartnomasiga asosan).

_____ MChJning kredit bo'yicha qarzdorligi ____ mln. so'mni, shundan muddati o'tgan qarzdorligi ____ mln. so'mni tashkil qiladi

Shuningdek, mijozning boshqa banklardagi kredit, lizing va muddati o'tgan qarzdorliklari to'g'risida ham yoritish lozim.

AJRATILGAN KREDIT BO'YICHA MA'LUMOT

1. "Mikrokreditbank" ATB _____ BXM/BXO Kredit komissiyasining 20__ yil ____ dagi ____-sonli bayonnomasiga muvofiq _____ MChJga _____ ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha asbob-uskunlar sotib olishga _____ so'm, ____ yil muddatga, asosiy qarz bo'yicha ____ oy imtiyozli davr bilan yillik ____ foizdan kredit ajratish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan

20__ yil ____ dagi ____-sonli kredit shartnomasiga muvofiq ajratilgan kredit mablag'lari 20__ dagi oldi-sotli shartnomasi (import shartnomasi) ga _____ sotib olish uchun quyidagi to'lov topshiriqnomalariga asosan o'tkazilgan:

- 20__ yil ____ dagi ____-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan _____ so'm;

- 20__ yil ____ dagi ____-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan _____ so'm.

Kreditning maqsadli ishlatilishi bo'yicha 20__ yil ____ da o'tkazilgan monitoring jarayonida kreditning maqsadli ishlatilganligi aniqlangan va _____ so'm miqdorida _____ (mahsulot) olinganligi qayd etilgan.

20__ yil ____ holatiga kredit bo'yicha jami qarzдорlik _____ so'mni tashkil etadi, shundan:

- joriy asosiy qarz	- _____ so'm;
- muddati o'tgan asosiy qarz	- _____ so'm;
- muddati o'tgan foiz	- _____ so'm;
- joriy foiz	- _____ so'm.

Moliyalashtirish ochilgandan buyon mijoz tomonidan kredit bo'yicha _____ so'm to'lov amalga oshirilgan, shundan:

- asosiy qarz uchun	- _____ so'm;
- foiz uchun	- _____ so'm yo'naltirilgan.

Mijozning Bankda boshqa kredit, lizing va kafolat bo'yicha qarzдорligi mavjud emas, K-2 da qarzдорligi _____ so'mni tashkil qilib, ular _____ qarzдорliklarga to'g'ri keladi.

Ajratilgan kreditning faoliyat joyiga borib o'rganilganda kreditning holatlari bo'yicha batafsil ma'lumotlar yozish (maqsadli yoki maqsadsiz ishlatilganligi, faoliyat nima sababdan tuxtab turganligi va x.k) hamda faoliyat joyining ma'sul xodimlar bilan o'rganilganligi bo'yicha rasmlarini ilova qilish

KREDITNING TA'MINOTINING HOLATI TAHLILI

_____ MChJga 20 _____ dagi _____-sonli kredit shartnomaga asosan ajratilgan kreditning ta'minoti sifatida quyidagi garov sifatida rasmiylashtirilgan:

- _____ MChJga tegishli, _____ shahri, _____ tumani, _____ ko'chasi _____ 22a-uy _____ manzilida joylashgan, er _____ uchastkasining _____ maydoni 0,4747 ga, umumiy maydoni 2 644,0 kv.m. bo'lgan zavod bino-inshootlari, garov qiymati _____ so'm yoki _____ AQSh dollari. Garov obyekti _____ SK tomonidan 20 _____ gacha sug'urta qilingan. (Sug'urta polisining raqami va sanasi)

- _____ MChJga tegishli, _____ shahri, _____ tumani, _____ ko'chasi _____ 22a-uy _____ manzilida joylashgan, 20 _____ yilda Xitoy davlatida ishlab chiqarilgan _____ ishlab chiqaradigan uskunalar, garov qiymati _____ so'm yoki _____ AQSh dollari. Garov obyekti _____ SK tomonidan 20 _____ gacha sug'urta qilingan. (Sug'urta polisining raqami va sanasi)

Kredit ta'minotlari ko'zdan kechirilganda holati bo'yicha batafsil ma'lumotlar yozish (yaxshi, qoniqarsiz, yomon, ta'qiqdan chiqarib yuborilgan va h.k.) hamda garov obyektlarining ma'sul xodimlar bilan o'rganilganligi bo'yicha rasmlarini ilova qilish.

KREDIT SHARTNOMASI SHARTLARI BO'YICHA MOLIYALASHTIRISH BOSHLANGAN (OCHILGAN)DAN SO'NG MIJOZNING MAJBURIYATLARI

Ushbu bo'limda loyiha bo'yicha moliyalashtirish ochilgandan so'ng, BXM/BXO Kredit komissiyasida belgilangan, kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarning qarzdor tomonidan bajarilishini o'rganish lozim. Jumladan,

- kredit hisobiga olib kelingan uskunalarini garov sifatida rasmiylashtirish;
- o'z hisobidan sotib olinishi rejalashtirilgan xom-ashyoning mavjudligi va b.

LOYIHANING AMALGA OSHIRISH GRAFIGI va TIA KO'RSATGICHLARI TAHLILI

Taqdim qilingan TIA (biznes-reja) bo'yicha tashkilotning ishga tushishi va mahsulot ishlab chiqarish muddati moliyalashtirish ochilganidan so'ng _____ oy belgilangan.

Loyihani amalga oshirish joyi _____ viloyati, _____ tumani, _____ da amalga oshirish rejalashtirilgan.

Loyihani moliyalashtirish 20 _____ yil _____ da ochilgan, ya'ni obyektni ishga tushirish 20 _____ da rejalashtirilgan.

Shuningdek, qurilish ko'zda tutilgan hollarda, qurilish jarayonining holati (smeta bo'yicha bajarilgan ishlar foizda, taxminiy foydalanishga topshirish muddatlari);

Ekologoya, atrof muhitga ta'siri (umumiy ma'lumot). Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining ijobiy xulosasining mavjudligi (muddatlari tekshiriladi);

Hudud ijara shartnomasiga asosan foydalanilayotgan hollarda ijara shartnomasi muddati hamda to'lovlarni amalga oshirilganlik holati o'rganilishi lozim.

Mijoz tomonidan kredit ajratish vaqtida taqdim qilingan biznes-reja bo'yicha:

- 20 _____ oy davomida _____ so'm miqdorida (tn, dona, m³ va b.) mahsulot ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan bo'lsa, haqiqatda _____ mahsulot ishlab chiqarilgan, ya'ni biznes reja hisobot davrida _____ %ga bajarilgan.

- 20 _____ oy davomida _____ so'm miqdorida tushum bo'lishi rejalashtirilgan bo'lsa, haqiqatda _____ so'm tushum bo'lgan, ya'ni biznes reja hisobot davrida _____ %ga bajarilgan.

TIA bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning _____ %i eksport qilinishi belgilangan. Shunga asosan 20 _____ davomida _____ miqdorida eksport qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda _____ miqdorida eksport qilgan, valyuta tushumi _____ ni tashkil etgan.



Mijozning hisobvarag'i bo'yich 20__ dan 20__ ga aylanmasi

- debet aylanma - _____ so'm;
- kredit aylanma - _____ so'm;

Tahlil sanasiga tayyor mahsulotlari _____ ni (tn, kg, dona) ni tashkil qiladi.

Tovar-xom-ashyosi _____ ni (tn, kg, dona) ni tashkil qiladi.

Agar hisobvarag'i bo'yicha pul aylanmasi amalga oshirilmagan bo'lsa, yoki pul aylanmasi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yo'nalishda amalga oshirilgan bo'yicha to'liq yoritish, manbalarini ko'rsatish lozim.

XULOSA:

Faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsatish kerak

Bank xodimi F.I.Sh. _____

Bank xodimi F.I.Sh. _____

_____ tashkilot direktorii F.I.Sh. _____

Bosh buxgalter F.I.Sh. _____